



**The development of education, schools and pedagogical ideas in
Movarannahur in the second half of the 15th century and the 16th
century**

Student of Termez State Pedagogical Institute

Yusupova Rayhona

Mamatqulova Asila

Abstract: This article analyzes the educational system, the activities of schools and madrasahs, and the development of pedagogical ideas in the territory of Movarannahur in the second half of the 14th century and the 16th century. The study scientifically highlights the high attention paid to science and enlightenment during the Timurid era, the role of educational institutions in the development of society, the content of education, and the directions of education. It also analyzes the pedagogical views and ideas of such great thinkers as Amir Temur, Mirzo Ulugbek, Alisher Navoi, and Zahiriddin Muhammad Babur about moral and spiritual education. This article serves as an important scientific source in studying the history of pedagogy and issues of national education.

Keywords: Movarannahur, education, school, madrasah, pedagogical ideas, Timurid era, spiritual education.

**XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movarannahurda tarbiya, maktab va
pedagogik fikrlar rivoji**

Termiz davlat pedagogika instituti talabalari

Yusupova Rayhona

Mamatqulova Asila

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movarannahur hududida ta'lim-tarbiya tizimi, maktab va madrasalar faoliyati hamda pedagogik fikrlarning rivojlanish jarayoni tahlil qilinadi. Tadqiqotda Temuriylar davrida ilm-ma'rifatga bo'lgan yuksak e'tibor, ta'lim muassasalarining jamiyat





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

taraqqiyotidagi oʻrni, taʼlim mazmuni va tarbiya yoʻnalishlari ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, Amir Temur, Mirzo Ulugʻbek, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk mutafakkirlarning pedagogik qarashlari, axloqiy-maʼnaviy tarbiya haqidagi gʻoyalari tahlil etilgan. Mazkur maqola pedagogika tarixi va milliy tarbiya masalalarini oʻrganishda muhim ilmiy manba boʻlib xizmat qiladi.

Kalit soʻzlar: Movaraunnahr, taʼlim-tarbiya, maktab, madrasa, pedagogik fikrlar, Temuriylar davri, maʼnaviy tarbiya.

Movaraunnahr hududi qadimdan ilm-fan, taʼlim va maʼnaviyat rivojlangan yirik markazlardan biri boʻlib kelgan. Ayniqsa, XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrlar bu mintaqada tarixida taʼlim-tarbiya, maktab va pedagogik fikrlarning jadal rivojlangan davri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu davrda siyosiy barqarorlikning taʼminlanishi, markazlashgan davlatning shakllanishi hamda ilm-maʼrifatga davlat miqyosida eʼtibor berilishi taʼlim tizimi rivoji uchun mustahkam zamin yaratdi.

Amir Temur va Temuriylar davrida maktab va madrasalar nafaqat diniy bilim beruvchi maskanlar, balki ilm-fan, madaniyat va maʼnaviy tarbiyaning muhim markazlariga aylandi. Taʼlim jarayonida Qurʼon va hadis bilan bir qatorda mantiq, falsafa, matematika, astronomiya, tarix va adabiyot fanlari ham oʻqitildi. Bu esa barkamol, bilimli va axloqan yetuk shaxslarni tarbiyalashga xizmat qildi.

1. Movarannahrda taʼlim-tarbiya rivojining ijtimoiy-siyosiy asoslari

XIV asrning ikkinchi yarmida Movarannahr hududida siyosiy barqarorlik oʻrnatilishi bilan birga ijtimoiy-madaniy hayotda tub oʻzgarishlar yuz berdi. Amir Temur tomonidan barpo etilgan markazlashgan davlat ilm-fan va taʼlim taraqqiyotiga katta imkoniyatlar yaratdi. Davlat siyosatida ilmiy kishilarni qoʻllab-quvvatlash, olimlar va mudarrislar faoliyatini ragʻbatlantirish muhim vazifa sifatida belgilandi.

Taʼlim-tarbiya jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida qaralib, yosh avlodni bilimli, vatanparvar va axloqan yetuk qilib tarbiyalashga alohida eʼtibor qaratildi. Shu





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

davrda ilm egalariga hurmat, ustoz-shogird an'analari mustahkamlandi va pedagogik qarashlar takomillashdi.

XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda tarbiya va maktab. XIV-asr oxiri va XV-asr O'rta Osiyo xalqlari ijtimoiy iqtisodiy-siyosiy, madaniyma'naviy va ma'rifiy hayotidagi tub burilish, gullab-yashnagan ikkinchi Uyg'onish davri bo'lib tarixda abadiy qoldi. Ana shu paytlarda tarixda **“Turon”**, **“Turkiston”** va

“Movarounnahr” nomi bilan mashxur bo'lgan vatanimiz jahon tsivilizatsiyasining beshiklaridan biri sifatida olam uzra dovruq taratdi.

Movarounnahr, Samarqand, Toshkent, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termizning noyob tarixiy yodgorliklari, Buyuk Ipak yo'li, Sharq mutafakkirlari yaratgan bebaho ta'limotlar, Amir Temur va temuriylar davrida gullab-yashnagan ilm-fan, me'morchilik, tasviriy san'at, naqqoshlik, musiqa, rivojlangan savdo-iqtisodiy munosabatlar, barpo etilgan mustahkam qudratli davlat va uning ichki va tashqi siyosati Evropadagi Uyg'onish jarayoniga hayotbaxsh ta'sir etgani tarixiy haqiqatdir. O'sha kezlarda ilm-fan, madaniyat, me'morchilik va boshqa sohalarda erishilgan ulkan muvaffaqiyatlar o'zining ulug'vorligi, nafisligi, umumbashariy g'oyalarga boyligi, badiiy shakllarining xilmaxilligi, ma'naviy sofliigi va etukligi bilan insoniyat aql-idroki va tafakkurini yuksaklikka ko'tardi, G'arbni Sharq bilan yaqinlashtirdi. Shu jihatlarni ko'zda tutib tadqiqotchilar bu davrlarni madaniy ko'tarinkilikning **“oltin asri”** ikkinchi **Renesans – Sharq Uyg'onish davri** deb nomlaydilar. Prezidentimiz ta'birlari bilan aytganda **“Temuriylar davri haqiqatan xam ilm-fan, madaniyat va maorifning behad ravnaq topishini ta'minlagan Sharq Uyg'onish davri edi”**.

Ikkinchi Sharq Uyg'onish davri madaniyati va ma'naviyati o'z-o'zidan, tasodifiy ravishda paydo bo'lgan emas. Uning o'ziga xos sabablari, qonuniyatlari, o'zaro uzviy





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

bog'lanishda bo'lgan siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, g'oyaviy asoslari, omillari mavjud.

XIV-asrning ikkinchi yarmidan XVI- asr boshlarigacha bo'lgan madaniy yuksalish – Uyg'onish davri haqida fikr yuritganda avvalambor o'sha davrlardagi tarixiy vaziyatni e'tiborga olishga to'g'ri keladi.

XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movarounnahrda Temuriylar renessansi ta'sirida ta'lim, tarbiya va pedagogik fikr yuksak rivojlandi. Maktab va madrasalar ko'payib, ilm-fan (astronomiya, matematika, adabiyot) va axloqiy tarbiya so'fiylik g'oyalari bilan uyg'unlashdi. Mirzo Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mutafakkirlar ma'rifatli, komil inson tarbiyasini pedagogik qarashlarining markaziga qo'yishdi.

Maktab va Madrasalar tizimi: Boshlang'ich maktablar (maktabxona) va oliy ta'lim muassasalari — madrasalar keng tarqaldi. Amir Temur davrida madrasalar davlat e'tiborida bo'lib, ilohiyot bilan birga dunyoviy fanlar ham o'rgatilgan.

Pedagogik fikrlar: Bu davrda tarbiya g'oyalari insonparvarlik, ilmga rag'bat va axloqiy poklikka asoslangan. So'fiylik ta'limoti ta'sirida komil inson tarbiyasi, ya'ni ruhiy va jismoniy barkamollik asosiy maqsad qilingan.

2. Maktab va madrasalarning ta'lim tizimidagi o'rnini

2.1. Boshlang'ich maktablar

Boshlang'ich ta'lim maktablarda amalga oshirilgan bo'lib, unda bolalarga savod o'rgatish, Qur'on o'qish, yozuv, axloq-odob qoidalari singdirilgan. Maktablar yosh avlodning dastlabki tarbiya maskani bo'lib, ularda intizom, hurmat, halollik va mehnatsevarlik kabi sifatlar shakllantirilgan.

2.2. Madrasalar va oliy ta'lim

Madrasalar Movarannahrda oliy ta'lim muassasasi vazifasini bajargan. Bu yerda fiqh, hadis, tafsir bilan bir qatorda mantiq, falsafa, matematika, astronomiya va tibbiyot





fanlari o'qitilgan. Samarqand, Buxoro va Hirot madrasalari yirik ilmiy markazlarga aylangan.

Mirzo Ulug'bek tomonidan qurdirilgan Samarqand madrasasi ilmiy salohiyati bilan ajralib turgan bo'lib, unda aniq fanlar chuqur o'qitilgan. Bu madrasalar pedagogik fikrlar rivojida muhim o'rin tutgan.

3. Buyuk mutafakkirlarning pedagogik qarashlari

3.1. Amir Temur pedagogik qarashlari

Amir Temur ta'lim va tarbiyani davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida ko'rgan. U yoshlarni jasoratli, intizomli, adolatli va vatanparvar ruhda tarbiyalashni muhim deb bilgan. Temur tuzuklarida axloq, odob va tartib masalalariga katta e'tibor qaratilgan.

3.2. Mirzo Ulug'bekning ilmiy-pedagogik faoliyati

Mirzo Ulug'bek ilm-fan va ta'lim taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan. Uning madrasalarida ilmiy tafakkur, mustaqil fikrlash va aniq fanlarga e'tibor kuchli bo'lgan. Ulug'bek ta'limda nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash tarafdori bo'lgan.

3.3. Alisher Navoiy pedagogik g'oyalari

Alisher Navoiy asarlarida axloqiy tarbiya, insonparvarlik, komil inson g'oyasi markaziy o'rin egallaydi. U ilm va odobni inson kamolotining asosiy sharti deb bilgan. "Mahbub ul-qulub" asarida yoshlarni ilimli, halol va jamiyatga foydali shaxs qilib tarbiyalash g'oyalari ilgari surilgan.

3.4. Zahiriddin Muhammad Bobur qarashlari

Bobur o'z asarlarida ilm-ma'rifat, axloq va tarbiyaning ahamiyatini yuksak baholagan. U yoshlarni bilimli, jasur va ma'naviy yetuk qilib tarbiyalash zarurligini ta'kidlagan.

4. Pedagogik fikrlarning mazmuni va ahamiyati





**JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-2, 2026**

Mazkur davr pedagogik fikrlarining asosini ilmga hurmat, axloqiy tarbiya, ustoz-shogird an'analari va insonparvarlik g'oyalari tashkil etadi. Ta'lim jarayoni shaxsni har tomonlama kamol toptirishga yo'naltirilgan bo'lib, bu tamoyillar bugungi ta'lim tizimi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movarannahrda ta'lim-tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar yuksak bosqichga ko'tarildi. Bu davrda maktab va madrasalar ilmfan va ma'naviyat markazlariga aylandi, buyuk mutafakkirlar pedagogik tafakkur rivojiga salmoqli hissa qo'shdilar. Ushbu tarixiy tajriba bugungi zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Fan, 2011.

Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: Sharq, 2008.

Temur tuzuklari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2014.

Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, 2008.

Pedagogika tarixi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.

